

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

BABAYEVA GULNOZAXON LATIBJONOVNA

TIBBIY DISKURS: NUTQ STRATEGIYASI VA TAKTIKASI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**UDK: 811.512.133'276.6:61
811.512.133'42:61**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of abstract of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Babayeva Gulnozaxon Latibjonovna

Tibbiy diskurs: nutq strategiyasi va taktikasi..... 3

Babaeva Gulnozaxan Latibjonovna

Medical discourse: speech strategies and tactics 25

Бабаева Гулнозахан Латибжонова

Медицинский дискурс: дискурсивные стратегии и тактика 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ 51

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

BABAYEVA GULNOZAXON LATIBJONOVNA

TIBBIY DISKURS: NUTQ STRATEGIYASI VA TAKTIKASI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3666 bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Andijon davlat chet tillari insituti veb-sahifasining (www.adchti.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shaxabiddinova Shoxida Xoshimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mirzoxidova Muyassar Inomjonovna
filologiya fanlari doktori, professor

Davlatova Xulkaroy Uktamovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)


Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashining "20" iyun 2024-yil soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko'chasi, 5-uy, Tel.: 0(374) 223-42-76; faks: 0(374) 223-42-76, e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin SS-A-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko'chasi, 5-uy, Tel.: 0(374) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "06" 12 kuni tarqatildi.
(2024-yil " " dagi raqamli reystr bayonnomasi).


D.A. Rustamov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

A.Dj. Ataboyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

L.R. Raupova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi v.b.,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tilning lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanishga, tilshunoslikning qator fanlar bilan aloqasini o‘rganish natijasida nutqning serqirraligini namoyon etishga e’tibor kuchaymoqda. Tilning bunyodkorlik vazifasi, amaliy ahamiyati tilshunoslikning qator fanlar bilan integrasiyalashuvi natijasida ochib berildi. Natijada, psixolingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika, lingvokulturologiya, tibbiy lingvistika kabi qator soha lingvistikalari shakllandi.

Dunyo tilshunosligida tibbiyot leksikasining turli qirralari, xususan, tibbiy diskurs, uning shakllanish omillari, amaliy ahamiyati hamda shifokor nutqi taktikasi va strategiyasi, turli xil kommunikativ vaziyatlarda shifokor va bemor o‘rtasidagi professional aloqani o‘rganish, sohaga oid terminlar bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Zotan, tibbiy nutqni o‘rganish zamonaviy shifokorning nutq ko‘rinishini taqdim etish, bemorga nutq ta’sirining samarali usullarini aniqlash imkonini beradi.

O‘zbek tilshunosligida bugungi kunda tibbiyot tilshunosligi, tibbiy lingvistika deb ataladigan yangi fan tarmog‘i rivojlanib bormoqda. Tibbiyot tili tibbiyot tarixchilari uchun ham, tilshunoslar uchun ham dolzarb masalalarni hal etadi. Klassik olimlar eng qadimgi tibbiy yozuvlarning mazmuni va tilini batafsil tahlil qildilar, bugungi kunda esa tibbiy lingvistikaning, tibbiy terminologiyaning keyingi rivojlanishi tilshunosligimizning yutug‘idir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi... Yana bir muhim vazifa: fundamental tadqiqotlar, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, tibbiyot va boshqa tarmoqlarda davlat tilini to‘laqonli qo‘llash bilan bog‘liq”¹. Shuning uchun o‘zbek tibbiy diskursini chuqur o‘rganish, tahlil etish, tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4997-son, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PF-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи”// 2019 йил, 21 октябрь// <http://uza.uz/oz/politics/>

Majlisga Murojaatnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivolantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Diskurs, tibbiy diskurs masalasi dunyo tilshunosligida atroflicha tahlil etilgan. Rus tilshunosligida diskurs va tibbiyotda professional kommunikasiyaga oid ko‘plab ilmiy ishlar mavjud. Jumladan, V.G.Borbotko², V.N.Babayan va S.L.Kruglova³, M.L.Makarov⁴, N.F.Alefirenko⁵, L.M.Alekseyeva va S.L.Mishlanova⁶, Ye.P.Bogatikova, S.L.Mishlanova va A.A.Filippova⁷, S.V.Mayborova⁸ va boshqalarning ilmiy ishlari misol bo‘la oladi. Tibbiy diskurs bo‘yicha esa M.I.Barsukova, L.S.Beylison, N.V.Goncharenko, V.V.Jura⁹ maxsus tadqiqot olib borishgan.

Tibbiy diskurs sohasidagi tadqiqotlar xorijiy tadqiqotchilar S.Poirier va D.Brauner¹⁰, J.Kuipers¹¹, P.Atkinson^{12,13}, J.Wilce¹⁴ ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Tibbiyot sosiologiyasi sohasida R.Anspach¹⁵, H.Waitzkin¹⁶, R.Charon, M.Greene va R.Adelman¹⁷, A.Werner¹⁸, yozma va og‘zaki diskurs sohasida M.Gotta^{19, 20}, M.Gotti va F.Salager-Meyer²¹ kabi olimlar tadqiqot olib borishgan.

² Борботько В.Г. Элементы теории дискурса. – Грозный: ЧИГУ, 1981. – 113 с.

³ Бабаян В.Н., Круглова С.Л. Теория дискурса в системе наук о языке // Ярославский педагогический вестник. 2002. № 3. – С. 55–57.

⁴ Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М.: Гнозис, 2003. – 280 с.

⁵ Алефиренко Н.Ф. Текст и дискурс. – М.: Флинта, 2012. – 232 с.

⁶ Алексеева Л.М., Мишланова С.Л. Медицинский дискурс: теоретические основы и принципы анализа. Пермь: Изд-во Перм. ун-та, 2002. – 200 с.

⁷ Богатикова Е.П., Мишланова С.Л., Филиппова А.А. Особенности представления специального знания в медицинском дискурсе // Историческая и социально-образовательная мысль. 2014. № 3. – С. 215–217.

⁸ Майборода С.В. Медицинский дискурс: современные теоретико-методологические подходы и перспективы исследования // Коммуникативные исследования. 2017. № 1. – С. 63–74.

⁹ Барсукова М.И. Медицинский дискурс: стратегии и тактики речевого поведения врача: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук. – Саратов, 2007. – 21 с.; Бейлисон Л.С. Характеристики медико-педагогического дискурса (на материале логопедических рекомендаций): дис. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2001. – 177 с.; Гончаренко Н.В. Суггестивные характеристики медицинского дискурса: дис. на соиск. учен. степ. канд. фил. наук. – Волгоград, 2007; Жура В.В. Речевые стратегии врача в устном медицинском дискурсе // Альманах современной науки и образования: Языкознание и литературоведение в синхронии и диахронии и методика преподавания языка и литературы: в 3 ч. – 2007. – № 3, Ч. 2. – С. 59-61.

¹⁰ Poirier S., Brauner D. Ethics and the Daily Language of Medical Discourse // The Hastings Center Report. 1988. Vol. 18. № 4. – P. 5-9.

¹¹ Kuipers J. “Medical Discourse” in Anthropological Context: Views of Language and Power // Medical Anthropology Quarterly. 1989. № 3. – P. 99–123.

¹² Atkinson P. Medical discourse, evidentiality and the construction of professional responsibility // Talk, work, and institutional order: Discourse in medical, mediation, and management settings. 1999. – P. 75-108.

¹³ Atkinson P. Medical Talk and Medical Work. – London: Sage Publications, 1995. – 176 p.

¹⁴ Wilce J. Medical Discourse // Annual Review of Anthropology. 2009. № 38. – P. 199–215.

¹⁵ Anspach R. Notes on the Sociology of Medical Discourse: The Language of Case Presentations // Journal on Health and Social Behavior. 1988. Vol. 29. № 4. – P. 357–375.

¹⁶ Waitzkin H. A Critical Theory of Medical Discourse: Ideology, Social Control, and the Processing of Social Context in Medical Encounters // Journal of Health and Social Behavior. 1989. Vol 30. № 2. – P. 220–239.

¹⁷ Charon R. Multi-dimensional interaction analysis: A collaborative approach to the study of medical discourse // Social Science and Medicine. 1994. Vol. 39. № 7. – P. 955–965.

O‘zbek tilshunosligida tibbiy lingvistika bo‘yicha sanoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, N.G‘aybullayeva²² tibbiy evfemizmlarni, A.Qobilova²³ tibbiy perifractalarni, D.Sobirova²⁴ tibbiy reklamalarning sosiopragmatik xususiyatlarini monografik planda o‘rgangan. “Tibbiy metaforalarning qisqacha izohli lug‘ati” hamda “O‘zbek tili tibbiy evfemizmlarining qisqacha izohli lug‘ati” yaratilgan²⁵. Ammo tibbiy diskurs masalasi monografik planda o‘rganilmagan va kun tartibiga qo‘yilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Andijon davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqotlar rejasining «Filologiya fanlarining dolzarb muammolari va ularni amaliyotga joriy etishning yangi pedagogik texnologiyalari» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nutq strategiyasi va tibbiy diskursning taktikasi hamda ularni amalga oshirish usullari, shifokor nutqining axloqiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tibbiy diskurs bo‘yicha mahalliy va xorijiy tilshunoslikdagi tadqiqotlarni o‘rganish va umumlashtirish;

o‘zbek tibbiy nutqini kuzatish, davolashning nutq taktikasini aniqlash, aniqlangan taktikalarni amalga oshirish usullarini tahlil qilish;

shifokor va bemor muloqotida nutq odobi va xushmuomalalik tamoyilini ko‘rib chiqish;

tibbiy xodim, bemor va bemorning yaqinlari nutqini sosiopragmatik tahlil etish, ularning muloqotidagi nutqiy aktlar o‘rnini aniqlash;

tibbiy diskursda paralingvistik vositalarning ahamiyatini diskurslar orqali tahlil qilish, nutqiy muloqotda ularning muhimligini ko‘rsatish;

tibbiy diskursda eksplisit va implisit ifoda usullarining mohiyatini yoritish;

o‘zbek shifokorlari nutqiy madaniyatini oshiruvchi tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini tibbiy xodim, bemor, bemorga aloqador kishilar nutqi, ularning nutqiy xulqi tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti tibbiy xodim, bemor, bemorga aloqador kishilarning nutq odobi strategiyasi va taktikasidir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, tahlil qilish, talqin qilish, tizimlashtirish, umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

¹⁸ Werner A. A sociological perspective of the medical consultation // Tidsskrift for Den norske legeförening. 2011. Vol. 20. № 131. – P. 2032–2034.

¹⁹ Gotti M. Variations in Medical Discourse for Academic Purposes // Medical Discourse in Professional, Academic and Popular Settings. Bristol: Multilingual Matters, 2016. – P. 9–30.

²⁰ Gotti M. Investigating Specialized Discourse. Bern: Peter Lang, 2011. – 230 p.

²¹ Advances in Medical Discourse Analysis: Oral and Written Contexts / ed. by Gotti M., Salager-Meyer F. Pieterlen: Peter Lang, 2006. – 492 p.

²² Faybullova N.I. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри. дисс... – Бухоро, 2019. – 145 б.

²³ Қобилова А. Тиббий перифразаларнинг лингвомаданий хусусиятлари: Филол.фан.бўйича фалс. д-ри. дисс...– Бухоро, 2022. – 155 б.

²⁴ Собирова Д.Р. Тиббий рекламаларнинг социопрагматик хусусиятлари: Филол.фан.бўйича фалс. д-ри. дисс... – Бухоро, 2022. – 153 б.

²⁵ Faybullova N.I. Ўзбек тили тиббий эвфемизмларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Академнашр, 2019. –77 б.; Абузалова М.К., Юлдашева Д.Н., Болтаева Н. Тиббий метафораларнинг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро: Дурдона, 2021. – 63 б.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shifokor va bemor nutqida ekstralingvistik vositalarning intensiyasi nutq payti, soʻzlovchi (shifokor/bemor) va tinglovchi (shifokor/bemor)ning holatiga bogʻliqligi aniqlangan;

diagnostika strategiyasi bilan tanishish, axborot soʻrovi, yaqinlashish, tushuntirish, ayblash; davolash strategiyasi psixologik holatni tartibga solish, tasalli, nasihat, tahdid; tavsiya strategiyasi maslahat, tavsiya, koʻrsatma berish kabi taktikalarini oʻz ichiga olishi ochiqqlangan;

shifokor, bemor, bemorning yaqinlari lisoniy muloqotining samaradorligining miqdor (maʼlum qilinayotgan axborotning miqdorini belgilash yoki chegaralash); sifat (berilayotgan axborot haqiqat boʻlishi); mavzuga oidlik (mavzudan uzoqlashmaslik, kerak boʻlgan maʼlumotni berishga harakat qilish); muloqot uslubi (tarzi) (aniq va tushunarli soʻzlash) tamoyillari asoslangan;

tibbiy diskursda dialoglarning shifokor + boshqa shifokor; shifokor + hamshira; shifokor + bemorning qarindoshi; shifokor + bemor modellari ajratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

diskurs, tibbiy diskurs hodisalarining lingvistikadagi oʻrni, ahamiyati masalasi ilmiy manbalar asosida yoritildi va bu orqali oʻzbek tibbiy diskursini oʻrganish boʻyicha amaliy vazifalar bajarildi;

tibbiy nutq, tibbiy diskurs, tibbiy deontologiya boʻyicha amaliy xulosalar shakllantirildi;

shifokor, bemor, bemor qarovchisi, bemorni koʻrishga kelgan shaxs nutqining sosiopragmatik tahlili asosida ularning nutqini boyitish boʻyicha xulosalar berildi;

oʻzbek tibbiy diskursini oʻrganish asosida bemor-shifokor, shifokor-shifokor, bemor-bemor qarovchisi, bemor-bemorni koʻrishga kelgan shaxs munosabatlari strategiyasi va taktikasi boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi oʻrganilgan materiallarning oʻzbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam berganligi, ularning asosli ekanligi, metodologik mukammalligi, amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati umumlashtirilgan ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalar, eng avvalo, tibbiyot taʼlimida “Tibbiy etika”, “Nutq madaniyati” va “Deontologiya” oʻquv kurslarining nazariy asoslarini ishlab chiqishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Ishdagi ilmiy tahlil, nazariy qarash va usullardan tilning boshqa birliklarini oʻrganishda foydalanish mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, uning materiallaridan pragmalingvistika, nutq madaniyati, lingvokulturologiya boʻyicha maʼruzalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalari tibbiy nutqni kengroq oʻrganishga, tibbiy filologiyani rivojlantirishga asos boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tibbiy diskurs: nutq strategiyasi va taktikasini aniqlash yuzasidan olib borilgan tadqiqot asosida:

tibbiy diskursga doir muloqot odatlari hamda nutqiy etiketlarni ifodalovchi til birliklarining muloqotdagi oʻziga xoslikni taʼminlashdagi oʻrni, ularning taʼrifi, tibbiy matnning grammatik, leksik va semantik, shuningdek, lingvostilistik imkoniyatlarining muloqot aktida lisoniy madaniyatni taʼminlashdagi vazifalari,

gender xususiyatlari, tartibga solingan diskurs, spontan diskursning nutqiy ta'sirga oid farqlarini ifodalash uchun maxsus va vazifadosh shakllar, eksplisit va implisit jihatlar bilan bog'liq ilmiy xulosalardan Andijon davlat universitetida bajarilgan "OT-F1-18 Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2023-yil 31-maydagi 39-01-1306-son ma'lumotnomasi). Natijada lisoniy madaniyatini ta'minlashga oid metodologiya yangi nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

shifokor va bemor o'rtasidagi nutqiy aktning lokutiv, illokutiv va perllokutiv harakatlarining o'rni pragmatik yondashuv asosida aniqlash, shifokor, bemor, bemorning yaqinlari lisoniy muloqotining samarali kechishi miqdor, sifat, mavzuga oidlik, muloqot uslubi (tarzi) tamoyillariga bog'liqligi ilmiy asoslash, shifokor, bemor nutqining implisit (yashirin) va eksplisit (oshkor) ifodalanishi yozib olingan diskurs materiallari asosida tahlillash natijalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DUK "Ma'naviy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Adabiy jarayon" "O'zbekiston yoshlari" nomli eshittirishlari senariysida foydalanilgan (2023-yil aprel va may oylari). (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat unitar korxonasi 2023-yil 23-apreldagi 04-36-803-son ma'lumotnomasi). Natijada, eshittirishlarning ilmiy saviyasi ortgan hamda ishda qo'llangan yondashuv o'zbek tili tabiatidan kelib chiqib, "tibbiy diskurs" tushunchasining lingvistik asoslari, maqsad-vazifasi tahlili kesimida o'rganishda foydalanish mumkinligi asoslanganligi ta'minlangan.

diskurs va matn lingvistikasiga doir mazmun ifodalovchi til birliklari konseptologiyasi va ularning olam lisoniy manzarasidagi aksiga doir lingvistik atamalarni izohlashda Andijon davlat universitetida 2022-2023-yillarda bajarilayotgan "№ IL-402104213. O'zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug'at ishlab chiqish" davlat innovatsion-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2023-yil 31-maydagi 39-01-1307-son ma'lumotnomasi). Natijada olam diskurs tavsifida qo'llaniluvchi ayrim birliklarining o'ziga xosliklari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 2 ta respublika anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 8 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, ulardan 1 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Hajmi 144 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad-vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining

ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobasiyasi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Diskurs lingvistik tadqiqot obyekt sifatida”** deb nomlanuvchi I bobida diskurs, uning jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi, “Tibbiy diskurs” tushunchasi tahlili va tadqiqi masalasi o‘rganilgan hamda ushbu masalalarga munosabat bildirilgan. Bobning “Diskurs va uning o‘rganilish masalasi” deb ataluvchi birinchi bo‘limida diskursning jahon va o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqi o‘rganilgan, umumlashtirilgan, munosabat bildirilgan. “Diskurs” tushunchasi tilshunoslik, antropologiya, adabiyotshunoslik, etnografiya, sosiologiya, sociolingvistika, falsafa, psixolingvistika, kognitiv psixologiya va boshqa bir qator fanlarning birlashmasida paydo bo‘lganligi sababli uni tahlil etish hamda unga ta’rif berish katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shunga qaramay, aytish mumkinki, olimlarning sa’y-harakatlari tufayli turli sohalarda diskurs nazariyasi mustaqil fanlararo umumiy tendensiyani aks ettiruvchi zamonaviy fan sifatida shakllanmoqda²⁶. Bu zamonaviy ilm-fan rivojlanishidagi integrasiyaning umumiy tendensiyasini aks ettiruvchi fanlararo sohadir, bu diskursni chuqurroq va kengroq o‘rganishga, uning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Fransuzcha ildizlarga ega bo‘lgan “diskurs” atamasi “nutq”, “gapirish”, “mulohaza yuritish” degan ma’nomlarni anglatadi²⁷.

Yana bir manbada “diskurs” atamasi etimologik jihatdan lotincha “discurrere” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “bahs-munozara”, “muzokara”, hatto “og‘zaki janjal qilish” ma’nomlarni bildirishi ta’kidlanadi²⁸.

Lingvistik ensiklopedik lug‘atda diskursga ekstralingvistik, pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan birgalikdagi izchil matn; voqea jihatidan olingan matn; odamlar va ularning ong mexanizmlari (kognitiv jarayonlar)da ishtirok etadigan maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladi²⁹.

Diskurs bo‘yicha birinchi tadqiqotlar XX asrning 50-yillari oxirlariga to‘g‘ri keladi. Bu izolyasiya qilingan so‘z (jumla) larning tilshunoslik chegarasidan chiqib, matnni tashkil etuvchi sintagmatik zanjirni tahlil qilish davr edi. Rus tilshunosligida, asosan, nutqda frazeologik birlikni tashkil etuvchi so‘zlar o‘rtasidagi mantiqiy-grammatik munosabatlar o‘rganilgan³⁰. T.A.van Deyk³¹, V.V.Bogdano³², A.G.Baranov³³, T.G.Vinokur³⁴, R.Vodak³⁵, V.I.Karasik³⁶,

²⁶ Борботько В. Г. Элементы теории дискурса. – Грозный, 1981. – С. 7–10.

²⁷ Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – С. 298.

²⁸ [Электронный ресурс] // Энциклопедия эпистемологии и философии науки. URL: <http://philosophy.niv.ru/doc/encyclopedia/epistemology/articles/405/diskurs.htm>

²⁹ [Электронный ресурс] // Лингвистический энциклопедический словарь / под ред. В.Н. Ярцевой. – М., 2002. URL: <http://tapemark.narod.ru/les/136g.html>].

³⁰ Фигуровский И.А. Основные направления в исследованиях синтаксиса связного текста // Лингвистика текста. Материалы научной конф. Ч. II. – М.: МГПИИЯ им. М. Тореза, 1974. – С. 109.

³¹ Дейк Т.А. ван, Кинч В. Стратегии понимания связного текста // Когнитивные аспекты языка: Сб. ст. / Сост., ред. и вступ. ст. В.В. Петрова и В.И. Герасимова. – М.: Прогресс, 1988 (Новое в зарубежной лингвистике; Вып. 23). – С. 153–211; Язык. Познание. Коммуникация: Сб. работ / Составление В.В. Петрова; Пер! с англ. яз. под ред. В.И. Герасимова; Вступ. ст. Ю.Н. Караулова, В.В. Петрова. – М.: Прогресс, 1989. – 310 с.; Принципы критического анализа дискурса / Пер. с англ. // Перевод и лингвистика текста. – М.: ВЦП, 1994. – С. 169–217.

³² Богданов В.В. Коммуникативная компетенция и коммуникативное лидерство // Язык, дискурс, личность. Тверь: Изд-во Твер. ун-та, 1990. – С. 26-31; Текст и текстовое общение: Учеб. пособие / Санкт-Петербург. гос. ун-т. СПб.: Изд-во СГ16ГУ. 1993. – 67 с.

M.L.Makarov³⁷, T.G.Slishkin³⁸, Y.I.Sheygal³⁹ tadqiqotlarida diskursni matn sifatida o‘rganish ijtimoiy va pragmalingvistik tahlil nuqtai nazaridan amalga oshirilgan. Y.A.Karaulov⁴⁰, L.P.Krisin⁴¹, M.P.Brandes⁴², I.P.Susov⁴³ ishlarida lingvistik diskursning sosiolingvistik xususiyatlari matn tahlillarida ko‘rilgan.

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida ham diskurs, uning mohiyati, o‘rni borasida tadqiqotlar amalga oshirilgan va bu jarayon davom etmoqda. Jumladan, Sh.Safarov, D.Ashurova, B.Yo‘ldoshev, A.Pardayev, L.Raupova, N.Normurodova, G.Odilova kabi olimlar pragmatik tilshunoslikda diskursning turli qirralarini tadqiqotlarida asoslab berishgan⁴⁴. Olim N.Turniyozov sintagmatik munosabat va diskurs

³³ Баранов А.Н. Политический дискурс: прощание с ритуалом // Человек. 1997. №6. – С. 108–118.

³⁴ Винокур Т.Г. Закономерности стилистического использования языковых единиц. – М.: Наука, 1980. – 237с.

³⁵ Водак Р. Язык. Дискурс. Политика / Пер. с англ. и нем. – Волгоград: Перемена, 1997. – 139 с.

³⁶ Карасик В.И. Язык социального статуса / Рос. акад. наук, Ин-т языкознания, Волгогр. гос. пед. ин-т им. А.С. Серафимовича. М.: Ин-т языкознания; Волгоград: Перемена, 1992. – 329 с.; О категориях дискурса // Языковая личность: социолингвистические и эмотивные аспекты. – Волгоград: Перемена, 1998. – С. 185–197; Религиозный дискурс // Языковая личность: проблемы лингвокультурологии и функциональной семантики. – Волгоград: Перемена, 1999. – С. 5–19; Структура институционального дискурса // Проблемы речевой коммуникации. – Саратов: Изд-во Сарат. ун-та, 2000. – С. 25–33.

³⁷ Макаров М.Л. Интерпретативный анализ дискурса в малой группе. – Тверь: Изд-во Твер. ун-та, 1998. – 200 с.; Основы теории дискурса. – М.: ИТДГК “Гнозис”, 2003. – 280 с.

³⁸ Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Волгоград, 1999. – 18 с.

³⁹ Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса: Монография / Ин-т языкознания РАН; Волгогр. гос. пед. ун-т. – Волгоград: Перемена, 2000. – 368 с.

⁴⁰ Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность / Отв. ред. Д.Н. Шмелёв; АН СССР, Отд-ние лит. и яз. – М.: Наука, 1987. – 261 с.

⁴¹ Крысин Л.П. Социолингвистические аспекты изучения современного русского языка. – М.: Наука, 1989. – 188 с.; Религиозно-проповедческий стиль и его место в функционально-стилистической парадигме современного русского литературного языка // Поэтика. Стилистика. Язык и культура. Памяти Т.Г. Винокура. – М.: Наука, 1996. – С. 135–138.

⁴² Брандес М.П. Стилистика немецкого языка (для институтов и факультетов иностранных языков): Учеб. 2-е изд., испр. и доп. – М.: Высшая школа, 1990. – 320 с.

⁴³ Сусов И.П. Деятельность, сознание, дискурс и языковая система // Языковое общение: процессы и единицы: Межвуз. сб. науч. тр. / Калинин, гос. ун-т; Редкол.: И.П. Сусов (отв. ред.) и др. Калинин, КГУ, 1988. – С. 7–13; Личность как субъект языкового общения // Личностные аспекты языкового общения: Межвуз. сб. науч. трудов / Редкол.: И.П. Сусов и др. Калинин: Калининск. гос. ун-т, 1989. – С. 9–16.

⁴⁴ Сафаров Ш. Лингвистика дискурса. – Челябинск, ЧГКИ, 2018, – 315 с.; Прагмалингвистика. – Тошкент: 2008. – 318 б.; Ашурова Д.У. Стилистические и прагматические аспекты словообразования английского языка: Дисс... кан. филол. наук. – Ташкент, 1993. – 405 с.; Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари. – Самарқанд: СамДУ, 2002. – 37 б.; Пардаев А. Дискурсив юкламаларнинг прагматик вазифаси хусусида // Бадиий асарларни шарҳлаб ўрганиш: тарих, тажриба, технология. Республика илмий конференцияси материаллари. – Тошкент: ТДПУ, 2014. – Б. 197–200; «Дискурсив юкламалар» ҳақида // Республика ёш олимлар илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: ЎзФА, 2014. – Б.271–272; Дискурсивные маркеры в узбекском языке // Дискурсология: язык, культура, общество: материалы XIII Международной научной конференции. – Луганск: ЛНУ, 2014. –С. 81–91; Дискурс ҳақида айрим мулохазалар // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: ТошДЎТАУ, 2016. – Б. 49–51; Раупова Л. Диалогик дискурсадаги полипредикатив бирликларнинг сопиопрагматик тадқиқи: филол. фан. д-ри...дисс. автореф. – Т., 2012. – 52 б.; Диалогик дискурсада миллий ментал омилларнинг намоён бўлиши // “Амударё” журнали, № 5. 2010. – Б. 125–128; Dialogical discourse as an environment in which a polypredictive unit is implemented. ISJ Theoretical & Applied Science, 03 (83). P. 451–457; Диалогический дискурс как среда, в которой реализуется полипредикативная единица // Theoretical & Applied Science. № 3. 2020. – С. 451–457; Diyalojik diskursa sosyal mental ve pragmatik etkenler // Turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar qurultoyi. – 2017. – Б. 33–38; Диалогик дискурс босқичлари ва уларнинг шаклланиши // Дунёвийлик ва динийлик ёшлар нигоҳида. 2010. – Б. 68–72; Бадиий ва санъат асарларида маданий нутқ орқали миллий ментал омилларнинг ифодаланиши. Монография. – Тошкент: Инновация-зиё, 2019. – 210 б. Нормуронова Н.З. Вербальная экспликация антропоцентризма в англоязычном художественном дискурсе. Автореф. ... дисс. Д-ра филол. наук. – Т., 2020. – 81 с.; Verbal explication of discursive personality in the light of anthropocentrism // ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal Vol. 10 Issue 12, December 2020; Одилова Г. К. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти Автореф. Филол. фан. д-ри...дисс. – Т., 2020. – 80 б.

shakllanishiga doir⁴⁵ batafsil to'xtalib o'tgan. U diskurs aksariyat hollarda ikki va undan ortiq gaplarning, murakkab sintaktik qurilmalarning o'zaro bog'lanishidan tashkil topishini ta'kidlaydi.

Tadqiqotlardan anglashiladiki, pragmatolingvistika va kognitiv tilshunoslikda diskurs asosiy ahamiyat kasb etadigan masalalardan biridir. Diskurs ko'p qirrali hodisa, ekstralingvistik omillar bilan uyg'un, kishilarning o'zaro munosabati va ularning ongli mexanizmlarining tarkibiy qismi sifatidagi nutq shaklidir. Ta'kidlash joizki, diskurs ifodalaydigan ma'no turli xilligi sababli, diskursning barcha holatlarini qamrab oladigan biror bir aniq va umumiy tan olingan ta'rif mavjud emas.

Bobning ikkinchi fasli "Tibbiy diskurs" tushunchasi tahlili va tadqiqi masalasi" deb nomlanadi. So'nggi yillarda tibbiyotning ijtimoiy roli keng jamoatchilik muhokamasiga sabab bo'lmoqda, chunki sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar ba'zi dolzarb vazifalarni hal qilishga imkon bergan bo'lsa-da, yangi muammolarni keltirib chiqardi. Bularga tibbiylashtirishning kengayishi, tashkiliy va texnik omillarning: tibbiyot xodimlari sonining kamayishi, ularga ish soatining oshishi, byurokratizasiya va maslahatlashuvlar uchun ajratilgan vaqtning qisqarishi, shuningdek, yangi biotexnologiyalar ta'siri ostida tibbiy amaliyotlarning o'zgarishi kiradi. Bu muammolarning barchasi shifokor va bemor o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar modellarining o'zgarishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida tibbiy diskursni lingvistik, psixologik, ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida o'rganish va tavsiflashga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarning paydo bo'lishiga olib keldi va metodologik yondashuv asosida tibbiy diskurs shakllarini aniqlash, tizimlashtirish va umumlashtirish fikri yuzaga keldi.

"Tibbiy diskurs" tushunchasi doirasini aniqlashtirish va ko'rib chiqish uchun uning tuzilishi tamoyillari, "tibbiyot" so'zining ta'riflarini tahlil qilinishi o'rinlidir. Etimologik jihatdan leksema lotin *medicina* atamasiga borib taqaladi hamda normal va patologik jarayonlarni o'rganish bo'yicha inson salomatligini saqlash, turli kasalliklar bo'yicha patologik sharoitlar yaratish kabi ilmiy va amaliy sohani anglatadi. Semantik tuzilishga asoslangan "tibbiyot" tushunchasidan "tibbiy diskurs" fenomeni doirasini aniqlash mumkin.

Tibbiy diskurs – bu ilgari bir-birini tanimaydigan, lekin kerak bo'lganda odamlar orasida jamiyat va ushbu jamoatchilik muassasasi normalariga muvofiq muloqot qilishi shart bo'lgan maxsus aloqa turi. Tibbiy diskurs global muammo bo'lib, muhtojlarga tibbiy yordam ko'rsatish va turli soha xodimlari bilan belgilangan professional o'zaro ta'sir (muloqot) turidir⁴⁶.

Tibbiy diskurs o'tgan asrning 60-70-yillarida AQSh va Yevropada fanning boshqa antropologik sohalari qatorida o'rganila boshlandi. G'arb tilshunosligida tibbiy diskursni tahlil qilishning ikkita yondashuvini ajratish mumkin. Birinchidan, AQShda sotsiolingvistika nuqtai nazaridan rivojlanayotgan klinik suhbatlarni tahlil qilish (tadqiqotchilar bu yondashuvni mikroanalitik deb ta'riflaydilar), ikkinchidan, Yevropada M.Fuko asarlarida ko'rsatilgan falsafiy fanlar yo'nalishi bilan bog'liq

⁴⁵ Турниёзов Н. Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар // Хорижий филология. № 4, 2016 йил. – Б. 10–13.

⁴⁶ Барсукова М.И. Медицинский дискурс: стратегии и тактики речевого поведения врача: Автореф. дис...канд. филол. наук [Текст]/ М.И. Барсукова. – Саратов, 2007. – 21 с.

diskursiv tadqiqotlar. Ularda nutq shifokorning vakolatlarini tasdiqlash va saqlash vositasi, shuningdek, manipulyasiya vositasi sifatida tahlil qilinadi (makroanalitik yondashuv). Ikkala, falsafiy va sotsiologik yondashuvlarning markaziy muammosi bemorga tibbiy diskursda ta'sir qilish usullarini o'rganish, tibbiy nutqning ijtimoiy nazorat shakli sifatida ishlashini aniqlash edi⁴⁷.

Har qanday institusional sohaning diskursi turli xil janrlardan iborat. Tibbiy diskurs ijtimoiy o'zaro ta'sir maydoni sifatida quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) ko'plab nutq janrlarining yozma va og'zaki shakllari; 2) tibbiy idoralarda yoki ommaviy axborot vositalarida shifokor va bemorning klinik uchrashuvlari (tibbiy forumlar va bloglar); 3) televideniyaning mashhur tibbiy dasturlari va statsionar tibbiy yozuvlar, klinik konferensiyalardagi taqdimotlar va h.

Ilmiy va tibbiy diskursda uchta umumiy makro janr mavjud. Bular:

1) ilmiy tadqiqot ishlari; 2) shifokorning bemor bilan suhbat; 3) darslik.

Bunday diskurs ishtirokchilari tibbiyot vakillari yoki boshqa kasb egalari bo'lishi mumkin. Bunda tibbiy diskursning o'zi vertikal (shifokordan bemorga) yoki gorizontal (shifokordan shifokorga, olimdan olimga) amalga oshirilishi mumkin. Tibbiy diskursning yozma va og'zaki usullari mavjud.

Tibbiyot ta'lim muassasalarida maxsus fan sifatida o'qitiladigan tibbiyot deontologiyasining bir qismini tibbiy diskurs tashkil qiladi.

Zamonaviy o'zbek lingvistikasida tibbiy diskurs masalasi monografik planda o'rganilmagan va kun tartibiga qo'yilmagan. Bundan anglashiladiki, tibbiy nutqning diskursiv, kommunikativ va pragmatik strategiyalarni aniqlash va farqlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tibbiy diskurs yaratuvchilarining nutqiy xulqi masalasi”** deb nomlanib, unda tibbiy diskursda nutqiy aktning o'rni masalasi yoritilgan, shifokor va bemor nutqining kommunikativ strategiyasi hamda sotsiopragmatik tahlili amalga oshirilgan, shuningdek, maishiy tibbiy diskurs xususida atroflicha ilmiy mushohada yuritilgan, yozib olingan tibbiy, maishiy tibbiy diskurslar tahlilga tortilgan. “Tibbiy diskursda nutqiy aktning o'rni” deb nomlangan birinchi bo'limida pragmalingvistikaning tadqiq doirasiga kiruvchi nutqiy akt hodisasi yoritilgan hamda tibbiy diskursda uning ahamiyati misollar asosida batafsil yoritilgan. Tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o'rinda – gap) asl ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir⁴⁸. Tibbiy diskursda nutqiy akt ahamiyatli hodisadir. Chunki shifokor-bemor nutqi faqatgina axborot berishdan iborat bo'lmay, bir qator pragmatik vazifalarni bajaradi. Tibbiy diskurs muayyan pragmatik xususiyatlar, funksiyalarga ega verbal va noverbal aloqalar, shuningdek, tibbiy muhitda davolash va kasallikning oldini olish vazifalarini amalga oshirish to'plamidir⁴⁹.

⁴⁷ Фуко М. Рождение клиники. – М.: Смысл, 1998. – 310 с.

⁴⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 318 б. – Б. 77.

⁴⁹ Маджаева С.И. Медицинские терминосистемы: становление, развитие, функционирование (на материале предметных областей медицины сахарный диабет и СПИД). – Астрахань: АГМА, 2012. – 277 с.

Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topishini barcha pragmalingsvistlar e'tirof etishadi. Ularning ko'pchiligi nutqiy aktga uch bosqichli faoliyat sifatida qarash tarafdorlaridir. Bu bosqichlarda uch xil harakat bajariladi. Ular – lokutiv, illokutiv va perllokutiv harakatlardir. Tibbiy diskursda ham nutq sohiblari tomonidan yaratiladigan va talaffuz qilinadigan gap lokusiyadir. Agarda biror bir sabab bilan (tilni bilmaslik yoki shifokor bemordan kasalligini yashirgan holatda) gap tuzilmasa va u talaffuz etilmasa, lokutiv harakat yuzaga kelmaydi. Masalan, “Siz tez orada sog‘ayib ketasiz” (shifokor tilidan) jumlasini faqatgina yozuvda qolsa, lokusiya yo‘q.

Diskurs yaratuvchilari gaplarni tuzishdan va talaffuz etishdan ma'lum bir maqsad ko'zlaydi, zero, bu maqsad til sohibi ongida doimo mavjud bo'ladi. Ushbu maqsadning voqelanishi esa illokutiv akt natijasidir. Illokusiya⁵⁰ shaxslararo (muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi) munosabatlarning ifodalanishidir. Masalan, yuqorida keltirilgan “Siz tez orada sog‘ayib ketasiz” gapini talaffuz etish vositasida shu voqea haqida xabar berish, bemor kayfiyatini ko'tarish, o'zini tetik his qilishiga sabab bo'lish kabi kommunikativ istaklarni ifodalash imkoni bor. Aynan shu kommunikativ maqsaddan qaysi biri ma'lum sharoitda voqelanishiga nisbatan nutqiy tuzilmaning illokutiv kuchi aniqlanadi.

Ravshanki, har qanday muloqot harakati natijaviy maqsadni ko'zlab bajariladi. Bu maqsadga erishish uchun so'zlovchining nutqi tinglovchiga ta'sir o'tkazishi lozim. Nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish bosqichi perllokutiv akt⁵¹ nomini olgan. Yuqoridagi “Siz tez orada sog‘ayib ketasiz” gapi talaffuzining natijasini tinglovchi ushbu nutqiy harakatni biz istagan maqsadda (masalan, xursand bo'lish, ruhiyatining ko'tarilishi, tuzalishga harakat qilish) qabul qilishda ko'ramiz. Demak, perllokusiya tinglovchi ongiga, his-tuyg'ulariga va xatti-harakatiga ta'sir o'tkazish harakatidir.

Har qanday kasbiy faoliyatning, shu jumladan, shifokor kasbining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu nutqiy aloqadir. Faoliyat sohasiga qarab, nutq aloqasi mutaxassis ish vaqtining 90 % ini tashkil qilishi mumkin. Zamonaviy mehnat bozorida mutaxassisning ahamiyati va dolzarbligi ko'p jihatdan muloqot qilish qobiliyatiga, so'zlar orqali boshqa odamlarga ta'sir o'tkazishga bog'liq. Bu haqda V.Verseyev shunday deydi⁵²: “Shifokor zukko iste'dodga ega bo'lishi, o'z ishining mohir ustasi bo'lishi mumkin, ammo u bemorning ruhini zabt etish va bo'ysundirish qobiliyatiga ega bo'lmasa, bularning barchasi samarasiz bo'lib qoladi”⁵³. Til me'yorlarining buzilishi, hatto o'z sohasidagi juda obro'li mutaxassisning nutqidagi xatolar tinglovchilar va o'quvchilar ongida u tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchlik darajasini sub'yektiv ravishda pasaytiradi. Psixologlar nutqning deformatsiyasi ongning deformatsiyasiga olib kelishi mumkinligini ogohlantiradi.

Bobning ikkinchi fasli “Shifokor va bemor nutqining kommunikativ strategiyasi hamda sotsiopragsmatik tahlili” deb nomlanadi. “Strategiya” atamasi keng qo'llanilishiga qaramay tilshunoslikda bu atamaning umumiy qabul qilingan

⁵⁰ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 82.

⁵¹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 83.


⁵² Вересаев В. Записки врача. – Санкт-Петербург, 1896–1906.

⁵³ Кокенова З.К., Турысбекова Г.Ж., Аркабаева Г.С. Культура. Личность. Общение. Речь. Человек. Вестник КазНМУ. – Алматы, 2014.

ta'rifi yo'q. O'TILda mazkur so'zga quyidagicha izoh berilgan: **STRATEGIYA** [*yun.* strategia < stratos -qo'shin + ago – boshlab boraman] **1** *harb.* Urush olib borish san'ati; urush va harbiy operatsiyalar o'tkazishning umumiy rejasi. **2** Urush olib borish haqidagi fan. **3** *ko'chma* Ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san'ati, shuningdek, umuman, boshqaruvni to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish san'ati⁵⁴. Ko'rinadiki, strategiya ko'p ma'noli so'z bo'lib, 3-ma'nosida (boshqaruvni to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish san'ati) nutqqa nisbatan qo'llash mumkin. “Kommunikativ strategiya” deganda muayyan vaziyatda nutq xatti-harakatida maqsadga erishish, ya'ni kommunikasiyani o'rnatish uchun ma'lum bir usul. Har qanday kommunikativ muloqotni taktikalar (aniq nutq harakatlari, o'zaro ta'sirning muayyan bosqichida nutqning ketma-ketligi) yordamida amalga oshiriladigan strategiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin⁵⁵.

O'TILda “taktika” so'ziga quyidagicha izoh berilgan: **TAKTIKA** [*yun.* taktike – qo'shin tuzish, saflash mahorati] **1** Harbiy san'atning jangga tayyorgarlik ko'rish va jang olib borish nazariyasi va amaliyotini o'z ichiga olgan tarkibiy qismi. **2** Ko'zlangan maqsadga erishmoq uchun olib boriladigan kurashning muayyan sharoitga mos yo'l va vositalari, shakl va usullari⁵⁶.

Strategik reja vositalarni tanlash va uni amalga oshirish usullarini belgilaydi, shuning uchun nutq strategiyasi va nutq taktikasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Tibbiy diskursning nutq strategiyalari muloqotning yakuniy maqsadi haqidagi umumiy g'oya bilan bog'liq. Tibbiy nutqning asosiy maqsadi, shubhasiz, kasal odamga malakali yordam ko'rsatish, ya'ni kasallikni aniqlash, kerakli davolash kursini belgilash va shuningdek, muayyan xatti-harakatni tavsiya qilishdan iboratdir. Shuning uchun boshqa tadqiqotchilar⁵⁷ quyidagi tibbiy diskursning uchta asosiy strategiyalarini ajratadilar. Ular quyidagilar:



1-rasm. Tibbiy diskurs strategiyalari

Ko'rinyaptiki, nutq strategiyalari birlashgan va bir-biriga qorishib ketgan. Bu tibbiy diskursning o'ziga xos xususiyatidir. Shuni unutmash kerakki, inson tanasi

⁵⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 3-жилд. – 688 б. – Б. 617.

⁵⁵ Формановская Н.И. Русский речевой этикет: Норматив. социокультур. контекст / Н.И. Формановская. – М.: Рус. яз., 2002 (ЗАО Астра семь). – 162 с.


⁵⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 3-жилд. – 688 б. – Б. 696.

⁵⁷ Карасик В.И. О типах дискурса / В.И. Карасик // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр. / В.И. Карасик. – Волгоград: Перемена, 2000. – С. 5–20.

Бейлинсон Л.С. Характеристики медико-педагогического дискурса (на материале логопедических рекомендаций): дис. ... канд. филол. наук: 10.02.01 / Любовь Семеновна Бейлинсон. – Волгоград, 2001. – 177 с.

murakkab tizim. Bir organ ko‘pincha boshqa organlarning disfunktsiyasi bilan birga keladi. Shu sababli xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun davolanish jarayonida (davolash strategiyasi), bir tomondan, shifokor qo‘shimcha ma‘lumot (diagnostika strategiyasi) olishi kerak va boshqa tomondan, shifokor davolashni tayinlab, davolashning muvaffaqiyatli natijasi uchun bemorga kerakli xatti-harakatlarni (tavsiya strategiyasi) buyurishi mumkin.

Shifokor va bemor muloqotning samarali kechishi ma‘lum qoidalar, muomala tamoyillariga amal qilish bilan bog‘liq.



2-rasm

Yuqoridagi chizmada shifokor va bemorning muvaffaqiyatli diskursi ularning samarali muloqot tamoyillariga amal qilishi bilan bog‘liqligi aks etgan. Ma‘lumki, axborot almashinilishi jarayonida miqdor, sifat, muqobillik va muomala tarzi muhim rol o‘ynaydi. Bu tamoyillar diskurs yaratuvchilarining har ikkisi uchun ham muhim. Xuddi shunga binoan H.Grays quyidagi maksima-tamoyillarni ajratadi⁵⁸: 1. Miqdor tamoyili. 2. Sifat tamoyili. 3. Mavzuga oidlik tamoyili. 4. Muloqot uslubi (tarzi) tamoyili.

Shifokor va bemor muloqot jarayonida mana shu tamoyillarga amal qilishi lozim. Bemor shifokorga kasalligi haqida ma‘lumot berganda ortiqcha ehtirosiga berilmasligi, kasalligiga oid kerakli faktlarni keltirishi lozim. Bemor, albatta, boshidan o‘tkazgan jarayonini aniq tushuntirishi va to‘g‘risini aytishi lozim (kasalligiga oid biror hodisani yashirmasligi kerak). Bu jarayonda bemor mavzudan uzoqlashmasligi (shaxsiy hayoti va b. masalalarga chalg‘imasligi) kerak. Shifokorga bezovtaligi haqidagi ma‘lumotlarni qisqa va aniq, ravon uslubda yetkazishi lozim.

Shifokor ham o‘z navbatida yuqoridagi tamoyillarga amal qilib, bemor va uning salomatligiga daxldor bo‘lmagan masalalarga to‘xtalmasligi, o‘zining shaxsiy hayoti va qiziqishlari to‘g‘risidagi axborotlarni qo‘shmay, notanish, tushunilishi qiyin bo‘lgan tibbiy iboralarni qo‘llamay, uning o‘rnida omma tushunadigan oddiy uslubda yetkazishi, tashxis qo‘yganda dudmallikdan qochishi, aniq va tushunarli so‘zlashi muhim masalalardandir.

Neonatolog vrach bilan ona (bemor bolaning onasi) suhbatlari:

- Assalomu aleykum, yaxshimisiz, doktor?
- Vaaleykum salom, kelinglar! Nima bezovta qilyapti?
- Ikki kundan buyon burni bitib, emishga qiynalyapti. Bugundan bir-ikkita yo‘tal ham paydo bo‘lgan.
- Nechinchi bolangiz?
- Uchinchisi.
- Abort qilganmisiz?
- Yo‘q.

⁵⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 136.

- *Bola tushishi-chi?*
- *Bo‘lmagan.*
- *O‘zingiz yengil bo‘ldingizmi yo kesercha yo‘li bilanmi?*
- *O‘zim.*
- *Bu bolangiz nechi kg tug‘ilgan?*
- *3,5 kg.*
- *Tug‘ilganida biror travma olganmi?*
- *Yo‘q, yaxshi tug‘ilgan.*
- *Hozir necha oylik?*
- *1 oylik.*
- *Hozir qanday dori ichiryapsiz?*
- *Burun bitishiga hech narsa bermadik, faqat otsos bilan burnini tozalab turibmiz.*
- *Qani, bir fonendoskop bilan eshitib ko‘raylik-chi (Eshitib ko‘radi). O‘pkasi toza. Faqat nafas olishida o‘zgarish bor. Kasalxonada qolishga sharoitingiz bormi?*
- *Agar zarur bo‘lsa, qolib davolanamiz.*
- *Shifokor nazoratida bo‘lgani ma‘qul. Chunki chaqaloqlarda kasallik tez rivojlanadi. Hozircha antibiotik boshlamaysiz. Dori bilan 1-2 kun ahvolini kuzatamiz.*
- *Yaxshi, rahmat.*

Yuqoridagi diskursga e‘tibor bersak, chaqaloq shamollashi tufayli kasalxonaga olib kelingan. Ammo shifokor onadan homiladorlikdan oldingi va keyingi holat, bolaning dunyoga kelishi bilan bog‘liq bir qator savollar bilan murojaat etgan. Ko‘p bemorlarda shifokorning savollarni uzoqdan boshlashi noodatij tuyulishi mumkin. Ammo mazkur diskursda shifokor ham, ona ham miqdor tamoyiliga amal qilgan. Chunki ma‘lum qilinayotgan holatda ortiqcha savol ham berilmagan, ortiqcha javob ham qaytarilmagan. Shuningdek, sifat tamoyiliga ham to‘liq javob beradi. Shifokor mazkur savollarni aynan onaga bergan (ota, buvi va b.ga emas), chunki bola bilan ona doimo birga, faqat ona bola holati haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘ladi. Bu orqali shifokor aniq va to‘g‘ri javob oladi, bu esa kasalning tezroq tuzalishiga muhim ahamiyat kasb etadi.

Diskursga diqqat qilinsa, savol beruvchi shifokor mavzudan uzoqlashmagan, ona ham kerak bo‘lgan ma‘lumotni berishga harakat qilgan. Muloqot uslubi (tarzi) esa ravon, shifokor notanish, tushunilishi qiyin bo‘lgan tibbiy terminlarni qo‘llashdan qochgan, dudmallik yo‘q, har ikki diskurs yaratuvchisining nutqi mantiqiy uzviylikka ega.

Bobning uchinchi fasli “Maishiy tibbiy diskurs xususida” deb nomlanadi. Tibbiy diskursga shifokor va kichik tibbiyot xodimlari bilan rasmiy va norasmiy muloqot, talabalar uchun ma‘ruzalar, bemor kartochkalarini yuritish, kasallik varaqalari, ma‘lumotnomalar va boshqa tibbiy hujjatlarni ro‘yxatga olish, bemor va uning qarindoshlari, hamkasblari, tanishlari bilan muloqoti kiradi⁵⁹. Ko‘rinadiki, tibbiy diskurs keng tushuncha. Bemorning sog‘ayishi va oyoqqa turishi uchun atrofdegilar bilan bo‘ladigan muloqoti ham muhimdir. Inson kasal bo‘lib qolganda undan xabar oluvchilar, hol-ahvol so‘rovchilar ko‘p bo‘ladi. Ayniqsa, o‘zbek xalqi kimningdir kasal bo‘lganini eshitsa, darrov borib xabar olishni, dalda bo‘lishni,

⁵⁹ <https://vprosvet.ru/biblioteka/psihologiya-rodstvennikov/>

qaysidir tomondan yordam qo'lini cho'zishni savob amal deb biladi. Bemorning yaqinlari, hamkasblari, tanishlari bilan amalga oshiriladigan diskursni maishiy tibbiy diskurs sifatida baholash mumkin. Maishiy tibbiy diskursga quyidagi kommunikatorlar orasidagi muloqot kiradi: 1) bemor – uning qarindoshlari; 2) bemor – uning hamkasblari; 3) bemor – uning tanishlari, do'stlari va b.; 4) bemor – u uchun begona kishilar.

Maishiy tibbiy diskursda bemordan xabar oluvchi quyidagi strategiyalarga amal qilishi lozim: 1) tashrif buyurish; 2) suhbat davomiyligi; 3) suhbat mavzusi.

Bemorning hamkasblari ko'rishga kelganda, odatda, shifokorning rozilgisiz bemorni uning ishi bilan bog'liq muammolar va hatto vazifalar bilan bezovta qilishlari mumkin⁶⁰. Bunday tashrifning ham salbiy, ham ijobiy tomonlari bor. Og'ir ahvolda yotgan bemor uchun boshqa tashvishlar ahamiyatsiz bo'lib, uning asabiylashishiga olib kelishi mumkin. Ammo bunday tashrif bemorning ahvoli sezilarli yaxshilanayotgan vaqtda uning ishonchi va o'ziga bo'lgan hurmatini mustahkamlashi, o'zini kerakli his qilishi uchun yordam berishi mumkin. Odatda hamkasblar bemor do'stlarining xarakterini bilganlari uchun uning psixologiyasidan kelib chiqib maishiy tibbiy diskurs yaratadilar. Quyida rak kasaliga chalingan ayol bilan uni ko'rishga kelgan hamkasblari orasidagi diskurs berilgan:

– *Assalomu aleykum, Sanobarxon! Yaxshimisiz?*

– *Voy, assalomu aleykum! Kelinglar, kelinglar, qadrdonlarim! Xush kelibsizlar.*

– *Ko'p urinmang, Sanobarxon. Bizlar o'zimiz joylashib olamiz.*

– *Yaxshi keldingizlarmi, azizlarim? Ishxona tinchmi, hamkasblar yaxshi ishlab yurishibdimi?*

– *Rahmat, bizlar hammamiz yaxshi. Hamkasblar so'rab yuborishdi. O'zingiz, sog'ligingiz yaxshimi? Ko'rinishingiz yaxshi. Hali ko'rmaganday bo'lib ketasiz...*

– *Hmmm, kundan kun orqaga ketyapman... Men-ku mayli-ya, bolalarimni o'ylayman, mendan keyin ularning holi nima kecharkin?..*

– *Voy, Sanobarxon, yomon narsalarni aslo o'ylamang, dardini bergan Alloh shifosini ham beradi... Siz faqat yaxshi narsalar haqida, bolalaringizning go'zal kelajagi haqida o'ylang. Hali tuzalib ham ketasiz, farzandlaringiz to'yida mazza qilib o'ynaymiz, Xudo xohlasa...*

– *Ha, ilohim, aytganingiz kelsin, ko'nglim ancha ravshan bo'ldi...*

– *Ishxonadagilar ham sizni judayam sog'inishgan. Talabalarimiz ham sizni so'rashgani-so'rashgan. Darslaringizni rosa sog'inishgan. Tez orada tuzalib, yana o'z o'rningizga qaytishingizni sabrsizlik bilan kutyapmiz.*

– *Ilohim, rahmat, sog' bo'lishsin...*

– *Mana biz sizga qiziqarli jurnallar olib keldik, zerikmasdan shularni mutolaa qilib o'tiring. Vaqt qanday o'tganini ham sezmay qolasiz. Muolajalaringizni vaqtida olib tursangiz, hammasi yaxshi bo'ladi. Biz esa tez-tez xabar olib turamiz. Doim muloqotda bo'lamiz.*

– *Rahmat, qadrdonlarim, boringizga shukur...*

Diskursda hamkasblar bemorning tuzalmas dardga chalinganini, umri kam qolganini bilishsa-da, uning yuragiga dalda bo'luvchi, kelajakdagi yorqin kunlar haqida gapirib, taskin berishadi. Lekin bemorning o'zi ham kasali og'irligini,

⁶⁰ <https://vprosvet.ru/biblioteka/psihologiya-rodstvennikov/>

uzoqqa bormasligini biladi. Shunday bo'lsa-da, umid bilan xursand bo'lgan. Suhbatdoshlar bemorni psixik travmadan asrab, og'ir holatini yana ham og'irlashtirmaslikka, chuqur depressiyaga tushirmaslikka harakat qilishgan. Chunki shunday yondashilmasa, bemor davolanishdan voz kechishiga, o'limini kutib, o'zini azobga qo'yishiga olib kelishi mumkin. Bemorning tibbiy-ruhiy holatiga muvofiq diskurs o'rnatish muhim.

Og'ir yotgan bemor, odatda shifokor bilan gaplashgan yaqinlaridan kasalligi to'g'risida so'raydi. Bunday bemorga esa kasalligi og'irligi haqida gapirish to'g'ri emas. Ishongan yaqinlarining gapidan bemor vahimaga tushib, shifokorga bo'lgan ishonchini yo'qotishi mumkin. Ammo bemorga yolg'on ma'lumot ham berish mumkin emas. Ko'nglini ko'tarish, yupatish lozim, ammo yolg'on ma'lumot bilan emas.

Maishiy diskursda bemor bilan muloqotda bo'luvchilarga asosiy "yuk" tushadi. Ular kasalning injiqligi, kayfiyatsizligi, qo'rsiligiga javoban qattiq gapirmasligi, ozor bermasligi kerak. Bemor bilan diskursga kirishganda uning ruhiy holatini e'tibordan qochirmaslik kerak. Maishiy tibbiy diskursda bemor huzuriga tashrif buyuruvchilar, asosan, so'z orqali kasalga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, ularni hayotga qaytarishga shifokorga yordam beradilar.

III bob "Tibbiy diskursda lingvistik va ekstralingvistik vositalar" deb nomlanib, unda paralingvistik vositalar va uning tibbiy diskursdagi o'rni hamda tibbiy diskursda fikrning implisit/eksplisit ifodalanishi masalasi tahlil etilgan. "Paralingvistik vositalar va uning tibbiy diskursdagi o'rni" deb nomlangan birinchi bo'limi paralingvistik vosita ekstralingvistik hodisalarning bir turi sifatida namoyon bo'lishi hamda tibbiy diskursda paralingvistik vositalarning o'rni masalasiga bag'ishlangan. Paralingvistika – 50-asrning 20-yillari boshlarida AQSHda tilshunoslik, psixologiya, etnografiya, tibbiyot va madaniy antropologiyada paydo bo'lgan fan sohasi. Ushbu soha vakillari Dj.Treger, G.Smit, I.Xoket, T.Sebeoklar hisoblanadi. Rus psixologiyasida G.V.Borozdina, I.N.Gorelov, V.F.Yengalichev, N.I.Jinkin, A.A.Leontyev⁶¹ va boshqalar ushbu muammoni o'rganish bilan shug'ullanishgan.

XX asrning so'nggi o'n yilligida sodir bo'lgan yangi ilmiy paradigmaga o'tish nafaqat tilshunoslikning qiziqish doirasi kengayishiga, balki paralingvistika yo'nalishining paydo bo'lishi va rivojlanishiga ham imkon berdi.

Paralingvistik vositalarni stilistik o'rganish 70-yillarda, ya'ni bu vositalarning ekspressiv imkoniyatlariga bag'ishlangan birinchi stilistik tadqiqotlar paydo bo'lganda boshlangan.

Paralingvistika odamlarning lingvistik muloqotiga hamroh bo'lgan va ma'lum bir tarzda talqin qilingan ma'lumotlarni yetkazib beradigan hodisalarni o'rganadi (ovoz tembri, intonasiya, yo'tal, imo-ishoralar, gapirish uslubi va hokazo.). Pragmalingvistika insonlar orasidagi muloqot reaksiyasini o'rganadigan

⁶¹ Бороздина Г. В. Психология делового общения: учеб. пособие для студентов экон. и техн. спец. вузов / Г.В. Бороздина. – Москва, 2006. – 224 с.; Горелов И.Н. Невербальные компоненты коммуникации / Отв. ред. В.Н. Ярцева; Предисл. В.И. Карасика. Изд. 4-е. – М.: Книжный дом «Либроком», 2009. – 112 с.; Енгаличев В.Ф. Судебная психологическая экспертиза в уголовном и гражданском процессах: вопросы теории и практики: практикум для студентов факультетов психологии высших учебных заведений. – Москва: МПСУ; Воронеж: МОДЭК, 2015. – 449 с.; Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982. – 157 с.; Леонтьев А.Н. Становление психологии деятельности. – М.: Смысл, 2003. – 870 с.

pragmatikaga eng yaqin yo‘nalishdir. Paralingvistika, odatda, lingvistik faoliyat bilan birga keladigan barcha turdagi hodisalarni – tovush, grafika, kinetika va boshqalarni qamrab oladi⁶². Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, noverbal muloqotda verbal muloqotga qaraganda besh marotaba ko‘proq ma‘lumot yetkaziladi. Bu jihati bilan u verbal muloqotdan afzaldir.

Paralingvistik aloqa vositalari tibbiyotda so‘zlovchi nutqini tinglovchiga yetkazishda amaliy yordam beradi. Xususan, bemor bilan shifokor, bemor bilan bemor, shifokor bilan tibbiy xodim, tibbiy xodim bilan bemorning yaqinlari o‘rtasidagi muloqotda ham paralingvistikaning o‘rni juda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki ko‘pincha shifokorga bemorning og‘zaki nutqi yetarli ma‘lumot bera olmaydi. Shuning uchun shifokor-bemor nutqining juda muhim jihati verbal nutq bilan bir qatorda noverbal vositalardan foydalanishdir⁶³. Shifokor bemor bilan muloqotga kirishganda “til to‘sig‘i” bo‘lgan holatda noverbal muloqot juda zarurdir. Agar shifokor va bemor turli tillarda gaplashsa yoki bemor gapini tushuntira olmaydigan holatda bo‘lsa, bir-birini tushunmaydi. Bunday vaziyatda ular imoishora, yuz reaksiyalari, ovoz intonasiyalaridan foydalanishadi.

Quyida afaziyaga chalingan bemor bilan shifokor diskursi berilgan bo‘lib, kasalni rasmlar orqali gapirtirishga, unga noverbal usullar orqali ta‘sir qilishga harakat qilingan:

– *Salom, men sizning shifokoringizman, meni tushunyapsizmi? (sekin va aniq talaffuz qilgan holda biroz kutib turib) Tushungan bo‘lsangiz “Ha” deb javob bering. (Shifokor bemorning javob berishi uchun bir oz vaqt kutib turdi.)*

– *Haa-aa-aa.*

– *Yaxshi. (Shifokor kulib, ko‘zlarini qisib qo‘ydi.) Hozir sizga rasm ko‘rsataman, nima tasvirlanganini aytasiz. Bu nima?*

– *Ko-koooooo-kop-ttttok.*

(Shifokor bemor tomonga yelkalari biroz egilgan, qo‘llari ochiq holatda, uning ko‘zlariga tikilganicha diqqat bilan eshitdi. Hamshiraga esa qo‘li bilan derazani yopishga ishora qildi.

– *To‘g‘ri, bunisi-chi? (Qo‘l harakatlari bilan faolroq tushuntirishga harakat qildi.)*

– *Mush-mushuk, yo‘q, mash-mashshshina.*

– *Zo‘r (katta barmog‘i bilan zo‘r ishorasini qilib). (Bemorning chehrasi yorishdi.)*

– *Endi o‘qishingizni tekshirib ko‘ramiz.*

Bu yerda nima yozilgan? (Shifokor boshlang‘ich maktab uchun mo‘ljallangan kitoblardan foydalandi.)

– *Quyooooooooosh buuuulutlar oraasidan chiiqdi.*

– *(Shifokor qarsak chalib yubordi, yuziga tabassum yugurdi) Siz buni yaxshi uddalayapsiz, endi keyingisini o‘qishga harakat qilamiz. (Shifokor bemor o‘qiyotgan gapni boshini qimirlatgan holatda ma‘qullab turdi.)*

– *(Bemor mamnun qiyofada keyingi rasmga diqqat qildi.) Bahor oyida yomg‘ir yog‘ishi ekinlar uchun muhim.*

– *Ajoyib. (Shifokor bemorning qo‘lini ushladi.)*

⁶² <https://otherreferats.allbest.ru/languages/00208>

⁶³ <http://medpsy.ru/zdravo/zdravo383.php>

Shifokor kasalning nutqini tiklash uchun rasmlar yordamida gapirtirishga, soʻzlarni eslashga, jummalarni oʻqishga undagan. Verbal muloqot bilan bir qatorda noverbal aloqa vositalaridan ham foydalangan. Shifokorning “bemor tomonga yelkalari biroz egilgan, qoʻllari ochiq holatda, uning koʻzlariga tikilganicha diqqat bilan eshitish” holati orqali kasalga befarq emasligi, uni qoʻllab turganini ifoda etgan, bu esa bemorga kuch bergan. Bemorning koʻrsatgan natijasiga javoban shifokorning katta barmogʻi bilan “zoʻr” ishorasini qilishi bemorni faol boʻlishga undashi bilan birga, oʻziga ishonch hissini uygʻotgan. Buning natijasida keyingi mashqlarni ham muvaffaqiyatli amalga oshirgan. Shifokorning qarsak chalib, yuziga tabassum yugurishi natijasida bemor mamnun qiyofada keyingi rasmga diqqat qilib, javob bergan. Shifokor bemor oʻqiyotgan gapni boshini qimirlatgan holatda maʼqullab turishi, qoʻlidan ushlashi unga dalda boʻlgan. Koʻrinyaptiki, shifokorning ijobiy noverbal harakatlari bemorning sogʻayishiga tomon qadam tashlashiga turtki boʻlgan.

Bobning “Tibbiy diskursda fikrning implisit va eksplisit ifodalanishi” deb nomlangan ikkinchi faslida implisit/eksplisit hodisasi mohiyati, tibbiy xodim, bemor va bemorga aloqador kishilar nutqida mazkur hodisalarning oʻrni, ahamiyati, maqsadi yozib olingan diskurslar asosida tahlil qilingan.

“Implisit”, “eksplisit” tushunchalari bugungi kunda koʻplab sohada keng qoʻllaniladi. Koʻpgina lugʻatlarda bu soʻz lotinchadan kirib kelganligi qayd etiladi⁶⁴. Jumladan, N.G.Komlevaning xorijiy soʻzlar lugʻatida “eksplisit” lotincha “explicite” soʻzidan olingan boʻlib, “aniq”, “ochiq” degan maʼnoni bildiradi, deb taʼrif berilgan. “Implisit” atamasi esa aksincha, “eksplisit” termini maʼnosiga antonim boʻlib, “koʻzda tutilmagan”, “tashqi tomondan koʻrinmaydigan”, “toʻgʻridan-toʻgʻri ifodalanmagan”, “yashirin” maʼnolarini ifodalashi taʼkidlangan⁶⁵.

Grammatik lugʻatda ham “eksplisit” va “implisit” atamalarining lotincha “explicitus” va “implicatus” soʻzlaridan kelib chiqqanligi, “eksplisit” – aniq, tushunarli boʻlib, “implisit” atamasiga nisbatan zid maʼnoni ifodalashi qayd etiladi. Implitik – chalkash, noaniq, oʻzini aniq namoyon qilmaydigan, tashqi tomondan aniqlanmaydigan, eksplisitikka qarama-qarshi maʼnoga ega tushuncha⁶⁶.

Ensiklopedik lugʻatda “eksplisitik” ingliz tilidagi “explicit” (aniq, ochiq ifodalangan), “implisitik” esa “implicit” (chalkash, noaniq, oʻzini aniq namoyon qilmaydigan, sirtni kuzatish orqali aniqlanmaydigan) soʻzlaridan olinganligi taʼkidlangan⁶⁷.

Yuqoridagi turli lugʻatlar izohlarini tahlil qilib, implisit termini “ifoda noaniq, yashirin”, eksplisit termini esa “aniq, ochiq” degan maʼnolarni ifodalashini qayd etish mumkin.

Diskursda kommunikativ aloqa maʼlum maqsad bilan yo eksplisit, yo implisit tarzda ifodalanadi. Bu soʻzlovchining niyati, holati, sharoiti, imkoniyati asosida voqelanadi. Tibbiy diskursda ham bu hodisalarning namoyon boʻlishi tabiiy.

⁶⁴ Пономарева Е.А. Изучение педагогических понятий, связанных с терминами «эксплицитный» и «имплицитный» // Мир науки, культуры, образования. № 2 (51) 2015. ISSN 1991-5497. – С. 133-137.

⁶⁵ Комлев Н.Г. Словарь иностранных слов. – Москва: Флинта, 2006 // <http://enc-dic.com/fwords/JEkstralingvisticheskiy-41678.html>

⁶⁶ <http://www.gramota.ru/slovari/dic>

⁶⁷ <http://tolkslovar.ru/ie683.html>

Tibbiyot xodimi, bemor, bemorning qarindoshlari orasidagi diskursda ma'lum kommunikativ maqsad asosida fikr imlisit yoki eksplisit tarzda ifodalanadi. Bunday diskursda ochiq muloqot bilan bir qatorda imlisit ifodaning ham o'rni katta. Chunki bemorning salomatligi, kayfiyati, ruhiyatiga salbiy ta'sirning oldini olish maqsadida shifokor uning kasalligini, ahvoli og'irligini ochiqchasiga aytishdan "tiyiladi". Yoki bemorning yaqinlariga uning o'limini eksplisit tarzda yetkazishdan ko'ra imlisit yo'l bilan bildiradi. To'g'ridan-to'g'ri "o'ldi" demaydi. "Bardam bo'ling!", "O'zingizni qo'lga oling!", "Alloh sabr bersin!", "Qo'limizdan kelganini qildik", "Tayyorgarliklaringizni ko'ringlar" kabi ifodalar bilan yetkazadi. Bunday ifodalarning intensiyasi nutqiy vaziyatdan reallashadi. Bu ham tibbiy xodimning yuksak tibbiy etikasidan, muloqot madaniyatidan dalolat beradi.

Agar diskursda pragmatik maqsad aniq va eksplisit ifoda topsa, nutqiy tuzilmada axborot oddiygina uzatilib qolmasdan, balki tinglovchilarga tezda ta'sir o'tkazish, ularni javob harakatiga undash maqsadlari aniq namoyon bo'ladi. Implitit ifodada esa adresantning javob reaksiyasi tez bo'lmasligi mumkin. Chunki adresantning ifodalamoqchi bo'lgan fikrini vaziyatdan kelib chiqib tinglovchi uqishi uchun vaqt kerak bo'ladi.

tibbiy diskursda ham bunday yashirin ma'nolarni anglash uchun diskurs yaratuvchilarining ongi, dunyoqarashi, farosati bilan bir qatorda o'sha paytdagi muhit, vaziyat ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bemor huzurida shifokor-shifokor diskursi:

– *Kompyuter tomografiya va magnit rezonans tomografiya tekshiruvi bu kishida buyrak adenokarsinomasi kasalligi borligini tasdiqladi.*

– *Qanday shikoyat bilan keldilar?*

– *Siydikdagi qon, bel yon soxasidagi og'riq va isitma bilan.*

– *Boshqa a'zolarga tarqalish darajasi qanday?*

– *(Shifokor bemorga qarab oladi, so'ng hamkasbiga yuzlanib, qo'lidagi qog'ozni uzatadi.) Mana xulosa.*

– *(Shifokor manfiy xulosani o'qiydi.) Muolajani boshladingizmi?*

– *Ha.*

Anglashilyaptiki, ikki shifokor bemorning oldida uning kasalligi haqida muloqotga kirishgan, ammo kasallik nomini tibbiy terminologik tushuncha bilan aytib, implitit ifodadan o'rinli foydalangan. Buyrak raki kasalligining buyrak adenokarsinomasi va buyrak xujayrali karsinomasi degan nomlari ham bor. Xalq orasida ko'pincha *rak*, *o'simta* nomlari bilan yuritiladigan xavfli kasallik bemor yuragiga vahima tug'dirib, kelajakka ishonchsizlik bilan qarashiga, kasali xuruj olishiga sabab bo'ladi. Bemorning ruhiyatiga yomon ta'sir etib, depressiyaga olib kelishi mumkin. Chunki vahima yarim kasallikdir. Shuning uchun shifokor boshqacha, xalq ishlatmaydigan, bilmaydigan nomni qo'llaydi. Shifokorning *Boshqa a'zolarga tarqalish darajasi qanday?* degan savoliga hamkasbi verbal javob bermay, implitit ifodadan foydalanadi, xulosa yozilgan qog'ozni berish bilan chegaralanadi. Chunki bu kasallik bemorning boshqa a'zolariga ham tarqalib bo'lgan edi. Buni ochiqchasiga aytish esa kasalning ahvolini bundan ham yomon bo'lishiga sabab bo'lar edi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tibbiy diskursda eksplisit bilan bir qatorda implitit ifoda ham ko'p qo'llanib, kasallik xavfini bemordan yashirishga,

bemor/shifokorga nisbatan betakalluf munosabatini ko'rsatishga, bemorning o'limini yaqinlariga yetkazishga xizmat qiladi.

XULOSA

1. Diskurs pragmalingvistika va kognitiv tilshunoslikning asosiy ahamiyat kasb etadigan masalalaridandir. U ko'p qirrali hodisa bo'lib, tilshunoslik, antropologiya, adabiyotshunoslik, etnografiya, sosiologiya, sociolingvistika, falsafa, psixolingvistika, kognitiv psixologiya va boshqa bir qator fanlarning integrasiyasida paydo bo'lgan. Diskurs ifodalaydigan ma'no turli xilligi sababli uning barcha xususiyatlarini ifoda eta oladigan aniq ta'rif mavjud emas.

2. Lingvistik manbalarni o'rganish asosida diskursga berilgan ta'riflar va unga xos xususiyatlar sifatida quyidagilarni umumlashtirib ko'rsatish mumkin: 1) ekstralingvistik, pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan qorishgan izchil matn; 2) kognitiv jarayonlarda ishtirok etadigan maqsadli ijtimoiy harakat; 3) matnning og'zaki va yozma shakli; 4) dialog; 5) ma'no jihatidan bog'langan so'zlar guruhi; 6) iboradan kattaroq birlik; 7) vaziyatni hisobga olgan holda so'zning uni qabul qiluvchiga ta'siri; 8) nutqning asosiy turi sifatidagi suhbat; 9) ijtimoiy yoki mafkuraviy jihatdan cheklangan turdagi fikrlar, bayonotlar, masalan, feministik diskurs; 10) matn ishlab chiqarish shartlarini o'rganish uchun mo'ljallangan nazariy konstruktsiya va b.

3. Sohalar integrasiyasi natijasida tibbiy diskursni lingvistik, psixologik, ijtimoiy, madaniy hodisa sifatida o'rganish va tavsiflashga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar paydo bo'lib, metodologik yondashuv asosida tibbiy diskurs shakllarini aniqlash, tizimlashtirish va umumlashtirish ehtiyoji tug'ildi.

4. Tibbiy diskurs ko'plab nutq janrlarining yozma va og'zaki shakllarini (1); tibbiy idoralarda yoki ommaviy axborot vositalarida shifokor va bemorning klinik uchrashuvlarini (tibbiy forumlar va bloglar) (2); televideniyaning mashhur tibbiy dasturlari va stasionar tibbiy yozuvlar, klinik konferensiyalardagi taqdimotlarni (3) o'z ichiga oladi. Tibbiy diskursning ilmiy tadqiqot ishlari (1); shifokorning bemor bilan suhbat (2); darslik (3) kabi uchta umumiy makro janri mavjud.

5. Nutqiy akt uch bosqichli faoliyat bo'lib, tibbiy diskursda nutq sohiblari tomonidan yaratiladigan va talaffuz qilinadigan gap lokusiyadir. Agarda biror bir sabab bilan (tilni bilmaslik yoki shifokor bemordan kasalligini yashirgan holatda) gap tuzilmasa va u talaffuz etilmasa, lokutiv harakat yuzaga kelmaydi. Tibbiy xodim yoki bemor gaplarni tuzishdan va talaffuz etishdan ma'lum bir maqsad ko'zlaydi. Ushbu maqsadning voqelanishi esa illokutiv akt natijasidir. Muloqot harakati natijaviy maqsadni ko'zlab bajariladi. Bu maqsadga erishish uchun so'zlovchi (tibbiy xodim/bemor)ning nutqi tinglovchi (tibbiy xodim/bemor)ga ta'sir o'tkazishi lozim. Nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish bosqichi esa perlokutiv aktdir.

6. Tibbiy diskursdagi asosiy nutq strategiyalari: 1) diagnostika; 2) davolash; 3) tavsiya qilishdir. Diagnostika strategiyasi tanishish, axborot so'rovi, yaqinlashish, tushuntirish, ayblash; davolash strategiyasi psixologik holatni tartibga solish, tasalli, nasihat, tahdid; tavsiya strategiyasi maslahat, tavsiya, ko'rsatma berish kabi taktikalarini o'z ichiga oladi. Tibbiy diskursda dialoglarning bir nechta modellari ajratildi: 1) shifokor + boshqa shifokor; 2) shifokor + hamshira; 3) shifokor + bemorning qarindoshi; 4) shifokor + bemor.

7. Tibbiy diskursda miqdor (ma'lum qilinayotgan axborotning miqdorini belgilash yoki chegaralash) (1); sifat (berilayotgan axborot haqiqat bo'lishi) (2); mavzuga oidlik (mavzudan uzoqlashmaslik, kerak bo'lgan ma'lumotni berishga harakat qilish) (3); muloqot uslubi (tarzi) tamoyili (aniq va tushunarli so'zlash)ga (4) amal qilish lozim. Chunki tibbiy xodim, bemor va bemor yaqinlarining muvaffaqiyatli diskursi ularning samarali muloqot tamoyillariga amal qilishi bilan bog'liq.

8. Tibbiy diskurs keng tushuncha. Bemorning sog'ayishi va oyoqqa turishi uchun atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqoti ham muhimdir. Bemorning yaqinlari, hamkasblari, tanishlari bilan amalga oshiriladigan diskursni maishiy tibbiy diskurs sifatida baholash mumkin. Maishiy tibbiy diskursga bemor – uning qarindoshlari; bemor – uning hamkasblari; bemor – uning tanishlari, do'stlari va b.; bemor – u uchun begona kishilar orasidagi muloqot kiradi. Bemordan xabar oluvchi tashrif buyurish; suhbat davomiyligi; suhbat mavzusi kabi strategiyalarga amal qilishi lozim.

9. Nutq yaratishda adresat va adresant, ular o'rtasidagi munosabat, aloqa ohangi, vaqt, joy, vaziyat kabi nolingvistik vositalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vositalar nutqning shakllanishiga, individualligi va originalligiga bevosita ta'sir qiladi. Muloqotning muhim kommunikativ omili paralingvistik aloqa vositalaridan foydalanishdir. Paralingvistika axborot uzatishning noverbal vositalarini o'z ichiga oladi. U odamlarning lingvistik muloqotiga hamroh bo'lgan va ma'lumotlarni yetkazib berishga ko'mak beruvchi hodisalarni o'rganadi.

10. Paralingvistik aloqa vositalari tibbiyotda so'zlovchi nutqini tinglovchiga yetkazishda amaliy yordam beradi. Xususan, bemor bilan shifokor, bemor bilan bemor, shifokor bilan tibbiy xodim, tibbiy xodim bilan bemorning yaqinlari o'rtasidagi muloqotda ham bunday vositalarning ahamiyati katta. Ko'pincha shifokorga bemorning, bemorga shifokorning og'zaki nutqi yetarli ma'lumot bera olmaydi. Shuning uchun shifokor-bemor nutqining juda muhim jihati verbal nutq bilan bir qatorda noverbal vositalardan foydalanishdir. Muvaffaqiyatli shifokor bemorning o'zgarishiga o'z vaqtida javob berish uchun noverbal tilni "o'qiy olishi" kerak. Bu bemor bilan munosabatlarni yaxshilashga, tuzalishini tezlashtirishga, vaqtni tejashga, nizolarning oldini olishga imkon beradi.

11. Tilshunoslikda implisitlik hodisasi o'n yildan ortiq vaqt davomida o'rganib kelingan. Bugungi kunga qadar tilshunoslikda implisitlikning turli xil ta'riflari mavjud. ularni umumlashtirgan holda quyidagilarni keltirish mumkin: 1) ko'zda tutilganlarning eng muhim qismi sifatida har qanday ibora va matnning ma'nosini ularsiz yaratish va tushunish mumkin emas; 2) nutq faoliyati jarayonida sub'yekt tomonidan yaratilgan ma'nolar xususiyati; 3) doimiy bo'lmagan, matnda tez o'zgarib turadigan, hatto yo'qolishi mumkin bo'lgan ma'no, mazmun elementi. Tibbiy diskursda eksplisit bilan bir qatorda implisit ifoda ham ko'p qo'llanib, kasallik xavfini bemordan yashirishga, bemor/shifokorga nisbatan betakalluf munosabatini ko'rsatishga, bemorning o'limini yaqinlariga yetkazishga xizmat qiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC
DEGREE PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 AT
ANDIJAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES**

ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE

BABAEVA GULNOZAKHAN LATIBJONOVNA

MEDICAL DISCOURSE: SPEECH STRATEGIES AND TACTICS

10.00.11 – Theory of language. Applied and Computational Linguistics

ABSTRACT
of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) in PHILOLOGICAL SCIENCES

Andijan – 2024

The theme of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under number B2023.2.PhD/Fil3666.

The dissertation has been prepared at Andijan Machine-building Institute.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (abstract)) on the Scientific Council website (www.adchti.uz) and on the website "ZiyoNet" information and educational portal (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor:

Shakhabitdinova Shokhida Khashimovna
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official opponents:

Mirzokhidova Muyassar Inomjonovna
Doctor of philological sciences, professor

Davlatova Khulkaroy Uktamovna
Doctor of philosophy in philology, (PhD)

Leading organization:

Kokan State Pedagogical Institute

The defence of the dissertation will take place on "20" June 2024 at 9:00 am at a meeting of the Scientific Council PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 awarding scientific degree at Andijan State Institute of Foreign Languages (Address: 5 Babur Avenue, Andijan, 170100, Tel: 0(374) 223-42-76; Fax: 0(374) 223-42-76 e-mail: asif@edu.uz).

The dissertation is available at the Information Resource Center of Andijan State Institute of Foreign Languages (registered number 35-A). (Address: 5 Babur Avenue, Andijan, 170100, Tel: 0(374) 223-42-76).

The abstract of the dissertation was distributed on "12" 06 2024.
(Protocol at the registered № _____ on " _____ " _____ 2024).



D.A. Rustamov
Chairman of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

A.Dj. Ataboev
Scientific secretary of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

L.R. Raupova
Chairman of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, acting Professor

INTRODUCTION (annotation of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD))

Topicality and necessity of the dissertation topic. In world linguistics, attention is being paid to the practical use of the linguistic possibilities of the language, to the manifestation of fluency of speech as a result of studying the connection of linguistics with a number of disciplines. The creative function and practical importance of language was revealed as a result of the integration of linguistics with a number of disciplines. As a result, a number of fields of linguistics such as psycholinguistics, sociolinguistics, neurolinguistics, linguoculturology, medical linguistics were formed.

Various aspects of the medical lexicon in world linguistics, in particular, medical discourse, its formation factors, practical significance, as well as the tactics and strategies of the doctor's speech, the study of the professional relationship between the doctor and the patient in various communicative situations, a number of scientific researches on the terms related to the field is being conducted. In fact, the study of medical speech makes it possible to present a view of the speech of a modern doctor, to determine the effective methods of the impact of speech on the patient.

In Uzbek linguistics, a new field of science called medical linguistics and medical linguistics is developing today. Medical language solves urgent issues for medical historians and linguists. Classical scientists analyzed the content and language of the oldest medical records in detail, and today the further development of medical linguistics and medical terminology is the achievement of our linguistics. As President Sh.M.Mirziyoyev noted, "In the conditions of globalization, it is an urgent task to preserve the purity of our national language, increase its vocabulary, create an Uzbek alternative to modern terms in various fields, and ensure their uniform use." ... Another important task: related to the full use of the state language in fundamental research, industry, banking and financial system, jurisprudence, diplomacy, medicine and other sectors¹. Therefore, deep study of Uzbek medical discourse, analysis, development of recommendations are urgent tasks.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 13, 2016 "On the establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi" No. PF-4997, No. PF-4947 dated February 7, 2017 Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-2789 of February 17, 2017 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan" and the Resolution on measures to further improve financing, dated October 4, 2019 PQ-4479 "It is appropriate to widely celebrate the thirtieth anniversary of the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the State Language" Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 2019 No. PF-5850 "On measures to fundamentally increase the prestige and status of the Uzbek language as a state language", Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis dated January 24, 2020, No. PF-6084

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи”// 2019 йил, 21 октябрь// <http://uza.uz/oz/politics/>

of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 20, 2020 "On measures to further develop the Uzbek language and improve the language policy in our country" This study serves to a certain extent in the implementation of the tasks defined in the decree and other regulatory legal documents.

Correspondence of the research to the priorities of the development of science and technology of the republic. This dissertation was completed in the framework of the priority direction of the development of science and technology of the republic I. "Formation of a system of innovative ideas and ways to implement them in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an informed society and democratic state."

The degree to which the problem has been studied. The issue of discourse, medical discourse has been thoroughly analyzed in world linguistics. There are many scientific works on discourse and professional communication in medicine in Russian linguistics. For example, the scientific works of V.G.Borbotko², V.N.Babayan and S.L.Kruglova,³ M.L.Makarov,⁴ N.F.Alefirenko,⁵ L.M.Alekseyeva and S.L.Mishlanova,⁶ Ye.P.Bogatikova, S.L.Mishlanova and A.A.Filippova,⁷ S.V.Mayborova⁸ and others can be examples. M.I.Barsukova, L.S.Beilison, N.V.Goncharenko, V.V.Jura⁹ conducted special research on the medical discourse.

Research in the field of medical discourse is reflected in the scientific works of foreign researchers S.Poirier and D.Brauner¹⁰, J.Kuipers¹¹, P.Atkinson^{12,13}, J.Wilce¹⁴. In the field of medical sociology, scientists such as R.Anspach¹⁵, H.Waitzkin¹⁶, R.Charon, M.Greene and R.Adelman¹⁷, A.Werner¹⁸, in the field of

² Борботько В.Г. Элементы теории дискурса. – Грозный: ЧИГУ, 1981. – 113 с.

³ Бабаян В.Н., Круглова С.Л. Теория дискурса в системе наук о языке // Ярославский педагогический вестник. 2002. № 3. – С. 55–57.

⁴ Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М.: Гнозис, 2003. – 280 с.

⁵ Алефиренко Н.Ф. Текст и дискурс. – М.: Флинта, 2012. – 232 с.

⁶ Алексеева Л.М., Мишланова С.Л. Медицинский дискурс: теоретические основы и принципы анализа. Пермь: Изд-во Перм. ун-та, 2002. – 200 с.

⁷ Богатикова Е.П., Мишланова С.Л., Филиппова А.А. Особенности представления специального знания в медицинском дискурсе // Историческая и социально-образовательная мысль. 2014. № 3. – С. 215–217.

⁸ Майборода С.В. Медицинский дискурс: современные теоретико-методологические подходы и перспективы исследования // Коммуникативные исследования. 2017. № 1. – С. 63–74.

